



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR**

2022- yilning yanvar oyida, Qashqadaryo viloyatida jami **462,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yil ning yanvar oyiga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



2249

Bino va inshootlar
qurish

292

Fuqarolik obyektlarini
qurish

846

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 126,6 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 66,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil ga nisbatan 3,4 foizga kamaygan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 8,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yila nisbatan 104,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 25,0 foiz ulushni va 116,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.02.2021- y.	01.02.2022- y.	
Qashqadaryo viloyati	3334	3387	101,6
shaharlar:			
Qarshi sh.	848	885	104,4
Shahrisabz sh.	139	142	102,2
tumanlar:			
G'uzor	148	143	96,6
Dehqonobod	152	152	100,0
Qamashi	181	166	91,7
Qarshi	394	381	96,7
Koson	279	305	109,3
Kitob	137	125	91,2
Mirishkor	83	83	100,0
Muborak	191	177	92,7
Nishon	121	125	103,3
Kasbi	152	163	107,2
Chiroqchi	206	212	102,9
Shahrisabz	116	111	95,7
Yakkabog'	187	217	116,0



2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (26,1)



Qarshi (11,2)



Koson (9,0)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	462,0	35,4	304,7	121,9
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	136,2	28,2	96,0	12,0
Shahrisabz sh.	17,8		14,5	3,3
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	43,3	1,7	31,9	9,7
Dehqonobod	14,5		5,0	9,5
Qamashi	11,6		7,3	4,3
Qarshi	42,3		33,9	8,4
Koson	30,6	2,4	18,0	10,2
Kitob	33,3		20,4	12,9
Mirishkor	11,8		4,1	7,7
Muborak	20,7	3,0	11,7	6,0
Nishon	16,8		13,7	3,1
Kasbi	14,5		5,8	8,7
Chiroqchi	33,8	0,1	22,1	11,6
Shahrisabz	13,7		8,7	5,0
Yakkabog'	21,1		11,6	9,5

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda





2022- yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 35,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 83,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,6 % punktga kamayib, 7,6 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2022- yil yanvar uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 20,7 % i yoki 2021- yilga nisbatan 180,1 %), Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,5 % i yoki 2021- yilga nisbatan 128,6 %) va Koson tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 7,8 % i yoki 2021- yilga nisbatan 114,4 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,0 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 105,8 % ni tashkil etgan holda 304,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



66,0

2022- yil yanvar

63,2

2021- yil yanvar




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (96,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 70,5 %), Qarshi tumani (33,9 mlrd. so'm yoki 80,2 %), G'uzor tumani (31,9 mlrd. so'm yoki 73,7 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,4 %** ni tashkil etdi yoki **121,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **102,5 %** ni tashkil etdi.




Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **16,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **445,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,6 %** va **96,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar



2022- yil yanvar



Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar oyida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
Qashqadaryo viloyati	462,0	5,3	1,1	456,7	98,9
<i>shaharlar:</i>				0	
Qarshi sh.	136,2	5,3	3,9	130,9	96,1
Shahrisabz sh.	17,8			17,8	100
<i>tumanlar:</i>				0	
G'uzor	43,3			43,3	100
Dehqonobod	14,5			14,5	100
Qamashi	11,6			11,6	100
Qarshi	42,3			42,3	100
Koson	30,6			30,6	100
Kitob	33,3			33,3	100
Mirishkor	11,8			11,8	100
Muborak	20,7			20,7	100
Nishon	16,8			16,8	100
Kasbi	14,5			14,5	100
Chiroqchi	33,8			33,8	100
Shahrisabz t.	13,7			13,7	100
Yakkabog'	21,1			21,1	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **64,5 %** i yoki 298,0 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

3,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 9,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 173,9 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **58,4 %** ni tashkil etdi.

58,4 %

38,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 114,4 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **38,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	462,0	102,8	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	136,2	120,0	29,5
Shahrisabz sh.	17,8	48,6	3,9
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	43,3	98,9	9,4
Dehqonobod	14,5	104,6	3,1
Qamashi	11,6	104,9	2,5
Qarshi	42,3	100,6	9,2
Koson	30,6	106,3	6,6
Kitob	33,3	104,9	7,2
Mirishkor	11,8	98,7	2,6
Muborak	20,7	104,9	4,5
Nishon	16,8	104,5	3,6
Kasbi	14,5	106,7	3,1
Chiroqchi	33,8	103,3	7,3
Shahrisabz	13,7	105,9	3,0
Yakkabog'	21,1	101,8	4,5

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,9 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga ko'payib, 67,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamayib, 32,1 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 41,1 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 58,8 % (1,4 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi (0,6 % punktga kamayish).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2021- yil yanvar

2022- yil yanvar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 20,2 % punktga ko'paydi va 41,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 58,5 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 20,2 % punktga kamaydi.

Hajmi
34,3 mlrd. so'm

ulushi % da

Hajmi
43,6 mlrd. so'm

41,5

2022- yil
yanvar

2021- yil
yanvar

21,3

58,5

2022- yil
yanvar

2021- yil
yanvar

78,7

Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (75) 221 32 47